

MAQOM IJROCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nishonov Shohrux Akmal o'g'li

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

3 bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maqom ijrochilarining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning o'zbek san'atidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *maqom, g'azal, muxammas, shashmaqom, ansambl, segoh, mumtoz*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности исполнителей макома, их роль и значение в узбекском искусстве.*

Ключевые слова: *маком, газель, мухаммас, шашимаком, ансамбль, сегох, классика*

Annotation: *This article discusses the peculiarities of makom performers and their role and importance in Uzbek art.*

Keywords: *makom, ghazal, mukhammas, shashmakom, ensemble, segoh, classical*

KIRISH.

O'zbek xalqi tarixini sehrli ohanglarda mujassamlashtirgan maqomlar musiqiy ijodning rivojlangan turlaridan biri bo'lib, u asosan monodik, ya'ni bir ovozlik uslubda yaratilgan va ijro etib kelingan. Har bir maqom o'zining aniq matniga ega bo'lgan, ya'ni g'azali bilan ijro etilgan. Ularda, asosan, Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Avaz O'tar, Ogaxiy, kabi mumtoz shoirlarning g'azal va muxammaslaridan foydalanilgan.

Xalq musiqasining murakkab janri bo'lmish maqomlarni ijro etish xonandadan professional malaka talab qiladi. Bunga erishish uchun ko'p yillar davomida maqom bilimdonlari bo'lmish ustoz hofiz va sozandalardan muntazam saboq olish zarur. Maqomlarni ma'lum darajada tushunib etishga, ularning barcha ichki xususiyatlarini o'rganishda, albatta, maqomlarning lad tarkibini, ritmik asoslarini amaliy o'zlashtirish darkor. Bundan tashqari maqomlar ijrosida xonandalik va sozandalikda mavjud barcha musiqiy bezaklar va xarakterli ohang-sayqallardan xabardor bo'lish kerak. Umuman, barcha an'anaviy ijrochilik asoslarini o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir an'anaviy ijrochi professional klassik musiqaning ichki lad xususiyatlari, tovushqatorlari, barcha tarkibiy qismlari, usul jihatlari, badiiy tomonlari to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lish bilan birga, maqomlarda mavjud xilma-xil variantlarni tushunib etmoqlari kerak.

Maqomlarning ashula, ya'ni nasr bo'limining e'tiborga loyiq tomonlaridan biri shundaki, ular juda keng diapozonga ega. Ya'ni ikki oktava va undan ortiq ovoz yo'lini o'z ichiga oladi. Melodik jumlar o'ziga xos keng ko'lamligi bilan ajralib turadi va ijrochidan uzun nafas yo'liga ega bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari katta nafas yuli bilan birga undan munosib foydalana bilish katta ahamiyatga ega. Chunki maqomlarning ijro jarayonida musiqiy ohanglarga rang -barang bezaklar berish, asosan, avj qismida amalga oshiriladi. Maqomlar ijrosining bunday o'ziga xos jumboqlarini echishda va klassik asarlarni qiyinchiliksiz ravon

ijrosiga erishishida har bir hofiz yuqori pardalarda mohirona kuylash xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Muhokama. Maqomlarning ijro uslubini o'zlashtirishda ularda ko'p uchraydigan namudlar tarkibi va ularni qay holatda va joylarda kelish printsipini bilish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Namudlar, ma'lum maqomlarning eng asosiy qismlaridan olinib boshqa bir maqomning avj qismida keladi. Bu o'ziga xos maqomlarga xarakterli uslubni an'anaviy ijrochilar iloji boricha nazariy va amaliy jihatdan mukammal o'zlashtirishlari talab qilinadi.

Shashmaqom cholg'u, ashula bo'limidagi kuy va ashula yo'llarining eshituvchilarga to'g'ri etib borishi, ularga zavq va lazzat bag'ishlay olishi, ularning boshqa musiqa asarlari kabi yaxshi ijro etilishiga bog'liq.

Shashmaqom va boshqa katta formadagi xalq musiqa asarlarini ijro etishda cholg'uvchi va hofiz maxsus malaka hosil qilgan bo'lishi, maqomlarni ijro etish texnikasini yuksak egallagan bo'lishi kerak. Sifatsiz ijro etish maqom yo'llari haqida noto'g'ri tasavvur qoldiradi. Maqom ijrochiligida bir hofizning aytish uslubi ikkinchisiga hech o'xshamaydi. Maqom yo'lini turli hofizlar xatto variantlar darajasida ijro etish mumkin, chunki har bir hofiz ashula yo'lini puxta va chiroyli ijro etish uchun o'z ovozinining imkoniyatlari doirasida unga ma'lum o'zgarishlar kiritadi. Hofiz ovozinining kuchi va baland-pastligiga qarab, ashulada mavjud bo'lgan kuy bo'laklarini qisqartirib yoki ularga namudlarga o'xshagan qismlar kiritish mumkin. Masalan; buxorolik hofizlar Qo'qon Ushshoqiga Segox, Ushshoq, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlarini qo'shib aytgan bo'lsalar, Farg'ona vodiysida esa faqat Nomudi Segoh bilan cheklanganlar. Tojikistonda unga Zebo pari avjini ham qo'shib ijro etganlar. Buxorolik hofizlarning maqomlarni ijro etish uslubida o'ziga xos yuksak texnika, qochirimlar borligini aloxida qayd etib o'tish lozim. Bunday ijrochilik uslubini juda qadim zamonlardan Markaziy Osiyoning markaz shahri Buxoroda shakllangan ijrochilik an'anasining mahsuloti, deb qarash lozim. Shuning uchun ham maqomlar ijrochiligida “sheva” masalasi ham hisobga olinishi kerak. O'zbek-tojik musiqasi ijrochiligida ham “sheva” nuqtai nazaridan turli viloyat va shaharlar o'rtasida ba'zi farqlar mavjuddir. Masalan, Buxoro aytish uslubida kuylanib kelingan ma'lum bir kuy yoki ashula Toshkent, Farg'ona shevalarida ijro etilsa, boshqacharoq tusga kiradi yoki aksincha.

Maqom yo'llari ijrosi uchun hofizda keng diapozon, yoqimli ovoz va yuksak aytish texnikasi bo'lishi shart. Hofiz kuy va unga aytiladigan she'r mazmunini his hila bilishi, uni eshituvchiga yuksak mahorat bilan to'g'ri etkaza olishi bunda muhim ahamiyat o'ynaydi. Agar maqom yo'llari har tomonlama yuksak badiiy saviyada ijro etilmasa, shinavandalarga etib bormasligi mumkin. Bu masalada ayrim maqomchi ustozlarning fikrlarini to'g'ri, deb bo'lmaydi. Ular Saraxbor bilan Savt yo'llarining doira usuli tempi o'tmishda juda sust bo'lib kelganligi uchun hozirgi kunda ham ular shunday ijro etilishi kerak, deb hisoblaydilar. Bu fikr noto'g'ri, albatta. Hozirgi kunda hofizlarning ijro etish imkoniyatiga qarab, maqom yo'llarining doira usuli tempini o'zgartira borish mumkin. Chunki maqomlar o'z tarixiy shakllanishining dastlabki kunlaridan boshlab, bizning kungacha bir ramkada qotib qolmadi, balki o'zgarib, rivojlanib, boyib bordi.

Maqomlarni ustoz shogirdga og'zaki o'rgatgani uchun maqomlarni o'zlashtirish juda mushkul bo'lardi.

Shashmaqomga kirgan kuy va ashula yo'llarining tuzilishi, melodik(ohang) harakati, rang-barang va jozibadorligi, kuy va ritmik intonatsiyaning o'ziga xos boy va murakkabligi ularni musiqamizning bo'lak janrlaridan ajratib turadi. Shuning uchun ham maqomlarni ijro etuvchi hofiz va sozandalar o'tkir didli, peshqadam san'atkorlar bo'lib, ularning (asarlari majmui) asosan maqom yo'llaridan iborat bo'lgan. Ustozlar maqomlarni bir butun shaklda, boshidan oxirigacha yoki ularning ayrim sho'balari ijro etib kelganlar. So'nggi vaqtlarda hofizlar maqom ashula yo'llarini yaka-yakka holda ham ijro eta boshladilar. Maqomlar ijrochiligida ko'pincha ularning ashula matnlari yangilanib turgan. Ma'lumki, bir ashula yo'lini turlicha vazndagi she'rlar bilan ijro etilishi musiqa amaliyotida juda ko'p uchragan hodisadir. Masalan, marhum hofiz Mulla To'ychi Toshmuhammedov Bayot I ni ikki turli, Bayot II ni esa uch turli vazndagi she'rlar bilan ijro etgani ma'lum. Bayot II ga mos o'qilgan she'rlardan bir bayt keltiramiz:

Bir kun meni ul qotili Majnun shior o'lturg'usi
Usruk chiqib, javlon qilib devonavor o'lturg'usi.

(Navoiy g'azali)

Qila boshladi menga zulmkim, sitam etdi jabru jafolaring,
Ki vafog'a va'dalar aylabon, qani va'dalarg'a vafolaring.

(Fazliy she'riga Vola muxxammasi)

To muxabbat dashti bepoyonida ovoraman,
Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoraman.
(Navoiy g'azali)

Bu she'rlar bilan ijro etilganda Bayot II qiyofasida ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ladi. Demak, ashula yo'llari yoki maqom yo'llarini ma'lum vazndagi she'rlar bilangina ijro etiladi, degan gap to'g'ri bo'lmaydi. Ularni turlicha ijro etish mumkin.

O'zbekiston maqomchilar ansambllaridagi maqom ijrochilik sifati xalqimizning kun sayin o'sib borayotgan talablari darajasida yaxshilanib bormoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston xalq artisti Abduxoshim Ismoilov rahbarlik qilayotgan radio maqomchilar ansambli ijrosidagi zamonaviy yangi texnikalarda yangi yozib olingan maqom asarlarini olishimiz mumkin.

Ijrochilik sifatining yaxshilanishi, zamonaviy shina vandalar ta'biga mos aytish uslublarini izlab topilishi esa maqomlardan ohang ma'lumoti sifatida foydalanish doirasini ham kengayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda “Shashmaqom” ijrochiligi to'g'risidagi mavzularni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, shashmaqomni nufuzini yanada ortirib, chet ellarda onmalashuvi va ustoz maqom xonanda va sozandalarining ijodiy safarlari bilan butun dunyo miqyosida kontsertlar berib kelishlariga sabab bo'lmoqda, chet ellarda ham maqomlarimizni o'rganilmoqda va ijro etilmoqda. Shashmaqom juda murakkab va yoqimli, jozibali, kishini qalbini o'ziga tortadigan sirli musiqiy boyliklariga ega ekanligini butun dunyo tan olmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Rajabiy Yu. “O‘zbek xalq musiqasi” V-tom. O‘zbekiston davlat badiy adabiyoti.
-Toshkent: 1959 yil.
2. Rajabiy Yu. “Shashmaqom tarixi I-VI”. Badiiy adabiyot nashriyoti. -Toshkent: 1970.
- 3 Rajabiy Yu. Musiqiy merosimizga bir nazar. Badiiy adabiyot nashriyoti.
-Toshkent:1978.
- 4 Rajabov I, Maqomlar masalasiga doir. Badiiy adabiyot nashriyoti. -Toshkent: 1963.
5. Rajabiy Yu., Karomatov F. Shashmaqom to‘plamlari I.G‘afur G‘ulom nomli badiiy
adabiyot nashriyoti. -Toshkent: 1965-1975.
6. Yunusov R. “Maqom asoslari”. G‘afur G‘ulom nomli badiiy adabiyot va san‘at
nashriyoti. -Toshkent: 1992 .
7. Yusupov M. Xorazm maqomlari. Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent: 1980.